

XONDAMIR TARIXSHUNOS OLIM

To'raqulova Sabina

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Xondamir tarixshunos olim sifatida nafaqat O'rta Osiyo balki Eron, Afg'oniston hamda Hindistonning o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'z ichiga olgan 10 ha yaqin asarlar yaratdi. Maqolada tarixshunos olim Xondamirning hayoti va ijodi, uning boy ilmiy merosi hamda asarlari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Bundan tashqari Xondamirning tarix ilmida mashhur bo'lgan "Habib us-siyar" asari haqida ham yoritib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *mamluklar, feodal sinf, Xuroson, qizilboshlar, tarxonlar, qatli-om, xonaqohlar, kartlar, ahli-fitna*

Xondamir taxminan 1475-1535 yillarda yashab ijod etgan tarixshunos olim, to'liq ism sharifi - G'iyosiddin Muhammad ibni xo'ja Humomiddin Muhammad ibni xo'ja Jaloliddin Muhammad ibni xo'ja Burhoniddin. Otasi Humomiddin Muhammad Temuriy sulton Mahmud Mirzoning vaziri bo'lib xizmat qilgan¹. Xondamir ning onasi buxorolik faqih Ubaydullo ibn Masud al-Mahbubiyga avlod bo'lgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Xondamir yirik tarixshunos olim Mirxondning nabirasi hisoblanadi. Xondamir 15-16 yoshlarida Alisher Navoiyning diqqat nazariya tushadi va uning vafotiga qadar ulug' shoirning yonida bo'ladi.

Xondamir Alisher Navoiyning kutubxonasiga boshchilik qiladi, u balog'atga yetishi bilanoq hamisha o'z umrini tarix kitoblarini mutolaa qilishga sarflay boshlaydi¹. Buning uchun unga to'la sharoit yaratilgan edi. O'sha zamonda Xurosonda eng mashhur hisoblangan Navoiy kutubxonasining kaliti Xondamirning qo'lga topshirib qo'yilgan edi. Bu xususda Xondamirning o'zi shunday yozadi: "Tarix va xabarlarini o'z ichiga olgan va ul buzrukvorning kutubxonasida mavjud bo'lgan har bir kitob bu gadoning ixtiyoriga topshirildi". Alisher Navoiy Xondamir olib borayotgan ilmiy ishlardan doimo boxabar bo'lib turdi. Olim esa hamisha o'z rejalarini Navoiy bilan kelishib tuzdi². Xondamir ilm sohasida nimaiki qilmoqchi bo'lsa, Navoiy bilan maslahatlashib faoliyat olib bordi. Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Xondamir haqida mana bunday satrlarni yozib qoldiradi: "Mavlono Xondamir Mirxondning farzandidur va salohiyatli yigitdur. Tarix ilmida mahorati border". Alisher Navoiy vafot etganidan so'ng Xondamir mamlakatda kuchayib ketgan o'zaro urushlar ayniqsa, saroyda avjiga chiqqan fisqu-fujurlar sababli Balxga ketib qoladi va Badiuzzamon Mirzoning³ (1496-1501 yillar Balx hokimi) xizmatiga kiradi. Hirot Shayboniyxon tomonidan ishg'ol etilganidan keyin Xondamir Zahiriddin

¹Ahmedov B. O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2003. 62-63 bet

²Ahmedov B. O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2003. 337-338 bet.

³O'sha asar. 82-bet

Muhammad Bobur huzuriga boradi. Bobur Movarounnahrda surib chiqarilgach, Xondamir Gurjistonga ketib qoladi va asosan ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi. 1514-1517 yillar Xondamir Balx uchun kurash olib borgan Muhammad Zamon (Badiuzzamonning o'g'li) bilan birga bo'ldi va uning shaxsiy kotibi lavozimida xizmat qildi⁴.

Muhammad Zamon qizilboshlardan yengilgach u yana Gurjistonga qaytib bordi va ilmiy faoliyatini davom ettirdi. 1521 yili Xondamir Hirotda qaytib boradi. Qizilboshlarning Xurosondagi vaziri Habibullo Sovajiyning taklifi bilan yana Hirotda qaytib boradi va uning topshirig'i bilan o'zining yirik tarixiy asari "Habib us-siyar" ni yozishga kirishadi, oradan 6 yil o'tib 1521 yilning iyul oyida olim yana Hirotni tark etdi va Hindiston tarafga jo'nab ketdi. Xondamir qishni Qandahorda o'tkazib 1528 yilning 17 sentyabrida Agraga keladi. Agrada Zahiriddin Muhammad Boburning xizmatiga kiradi. Boburning vafotidan so'ng u Humoyun podshoh xizmatida bo'ladi, Xondamir 1535-yili Dehlida vafot etdi. Xondamirning vasiyatiga ko'ra, mashhur Nizomiddin Avliyo mozorida Amir Xusrav yoniga dafn etildi.

Xondamir sermahsul olim edi. Umri davomida tarix uchun qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lgan asarlar yozib qoldirdi. Movarounnahr, Turkiston, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga oid 10ga yaqin asrlar yozib qoldirgan⁵. Jumladan, "Xulosat ul-axbor" (Xabarlar xulosasi), "Maosir ul- muluk"(Podshohlar asrdoshlari), "Nomayi nomiy"("Atoqli maktublar"), "Makorim ul-axloq" (Oliyjanob xulqlar), "Dastur ul-vuzaro"(Vazirlarga qo'llanma), "Qonuni Humoyun"(Humoyun qonunlari) va "Habib us-siyar".

Xondamir ilmiy merosida "Habib us-siyar" asari alohida o'rin tutadi. "Habib us-siyar" ning toliq nomi "Habib us-siyari axbor afrod ul-bashar", ya'ni "inson habiblari va darslarida do'stning tarjimayi holi".²

Mazkur asar O'rta Osiyo va Xurosonning XV asr oxiri va XVI asr birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va qimmatli manba hisoblanadi. Asar 1521-1524 yillar orlig'ida yozilgan. Lekin olim yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, 1527 yilning iyul oyida Hindistonga jo'nab ketadi hamda Hindistonda bo'lgan yillari ham o'z ustida ishlashdan to'xtamadi. Aksincha "Habib us-siyar" asariga yangi faktlar va ma'lumotlarni fikrlar bilan boyitgan, qayta -qayta tahrir qilib to'la ravishda 1529 yili tamomlagan.

"Habib us-siyar" umumiy tarix yo'nalishidagi asar bo'lib, muqaddima, xotima va uch jilddan iborat. O'z navbatida har bir jild to'rt qismga bo'linadi. Asarning I-II jildlari hamda III jildning 1-2 qismlari Chingizxon va uning Mo'g'uliston, Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodlari, mamluklar, Kirmon qora Xitoylar, kurtlar va Xuroson sarbadorlari tarixini o'z ichiga oladi.III jildning 3 va 4- qismlari yangi bo'lib, Xuroson va Movarounnahrning XV asrning 90-yillaridan boshlab to 1524 -yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvolni chuqur va atroflicha bayon etadi. "Habib us-siyar" asarida katta yer egaligi, iqtisodiy ahvol, tinimsiz urushlar

⁴Madrahimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: Fan, 2007. 150-151 betlar.

⁵Madrahimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: Fan, 2007. 150-151 betlar.

tufayli vujudga kelgan sharoit togrisida ayrim diqqatga sazovor dalillar va ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan, asrda o'z aksini topgan 1498 yilgi Samarqand qamali paytidagi shahar aholisining ayanchli ahvoli, 1512 yili Safaviylar tomonidan Qarshi shahrida amalga oshirilgan qirg'inbarot, 1514-1515 yillarda Xurosonda yuz bergan ocharchilik haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir⁶.

Xondamir ushbu asarida muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid yer egaligi, tarxonlar, suyurg'ol egalarining jamiyatda tutgan o'rni, Temuriylar davlatining ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shuningdek asar etnografik geografik ma'lumotlarga ham boydir.

“Habib us-siyar” asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Asarning matni 1857 yili Bombay shahrida va 1954 yili Tehronda chop qilingan. Undan ayrim parchalari rus, fransuz va ingliz tillarida turli to'plamlarda e'lon qilingan. Xondamir ijodini O'zbekistonda B. Ahmedov, D. Yusupova, M. Ahmedov va boshqalar tadqiq qilgan.

Xondamir bor yog'i 60 yil umr ko'rdi. Lekin uning umri sermazmun va kelajak uchun foydali bo'ldi. U o'zi yaratgan o'lmas asarlar tufayli o'z nomini tarix sahnasiga abadiy naqshladi. Xondamir boy ilmiy merosi haqida fikr yuritishdan oldin shuni ta'kidlab o'tish lozimki, u saroy kishisi, hukmron feodal sinf vakilidir. Shuning uchun ham u o'z sinfining maqsad va manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qildi. Xondamir o'z asarlarida ana shu hukmron sinfnig dunyoqarashlarini aks ettirdi.

Mehnatkash ommaning og'ir turmushi esa uning nazaridan chetda qoldi. O'z turmushini yaxshilash uchun kurashganlarni esa "ahli fitna", "beboshlar" deb atadi. Shunga qaramay uning asarlarini diqqat bilan o'qisa mehnatkash omma haqida ham qimmatli ma'lumotlarni o'rgansa bo'ladi. Umuman xalqimizning va qo'shni bo'lgan Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston va Sharqiy Turkiston xalqlarining uzoq o'tmishdagi tarixi va yuksak madaniyatini o'rganishda mashhur muarrix Xondamirning mashhur asarlari muhim rol o'ynaydi. Xondamirning ba'zi bir asarlarining ham mazmuniga ham to'xtalib o'tishimiz joiz. Uning “Makorim ul-axloq” ya'ni “Oliyjanob sifatlar” asari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ushbu asar Alisher Navoiyga bag'ishlangan. Mazkur asar 1501 yili yozib tugatilgan, Xondamir bu haqda “Habib us-siyar” da mana bunday yozadi: “Ushbu asar amir Alisher Navoiyning yuksak fazilatlar va oliyjanob axloqi, she'rlari va boshqa adabiyasarlari hamda qurdirgan imoratlarini tavsif qiluvchi maxsus risola bo'lib, hijriy 906 yili, ya'ni Alisher Navoiy vafot etgan yili tahrir ipiga tuzilgan edi”.

Asarning yagona nusxasi Britaniyada saqlanmoqda. “Makorim ul-axloq” 10 bob, muqaddima va xotimadan iborat. Asarning muqaddimasida Alisher Navoiyning tugilishi hamda uning bolalik va yoshlik yillariga oid ayrim muhim ma'lumotlar keltirilgan⁷.

Xondamir ushbu asarning 1 bobida oliyjanoblik, donolik, bashorat singari xususiyatlar Navoiyda mujassamlashganini ta'kidlab o'tadi. “Makorim ul-axloq” asarining 5-bobi muhim ahamiyatga molik. Mazkur bobda Navoiyning muhim davlat

⁶Madrahimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: Fan, 2007. 151-bet.

⁷Ahmedov B. O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2003. 352-353 bet.

arbobi bolganligi, olimlar xususida ko'zga ko'ringan shayxlarga qilgan himmati, shuningdek darveshlar, mehnatkash xalqqa ko'rsatgan marhamatlari, ular uchun qurdirgan xonaqohlari, mamlakat obodonchiligi yo'lida barpo etilgan boshqa inshootlar haqida so'z yuritiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Xondamir o'rta asr fani, xususan tarix ilmiga barakali hissa qo'shdi. Uning ko'pgina asarlari turli faktlarga boyligi bilan muhim o'rin tutadi. Xondamirning asarlari tarix ilmiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bo'riboy Ahmedov. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
2. Madrahimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Ahmedov B. O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. – Toshkent: Cho'lpon, 2003.
11. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 975-980.
12. Adhamjonov, M. (2022). IMPLEMENTATION OF EFFECTIVE ORAL CORRECTIVE FEEDBACK IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 30-33.
13. Адхамжонов, М. (2022). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. PEDAGOG, 1(2), 402-406.
14. Muhammadali, A. (2023). HISTORY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND ITS METHODOLOGY. Journal of new century innovations, 29(1), 127-131.
15. Muhammadali, A. (2023). НЕМИС ТИЛИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 417-422.
16. Muhammadali, A. (2023). USE OF INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Journal of new century innovations, 27(5), 71-74.
17. Adhamjonov, M., & Nurillaev, E. (2020). MODERN REQUIREMENTS FOR COMMUNICATIVE COMPETENCE OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHER. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 155-161.